



SO`Z YASALISH TIZIMINING TILSHUNOSLIKDA O`RGANILISHI.

DERIVATSIYA VA OKKOZIONALIZM

UMAROVA XILOLAXON ILXOM QIZI

“Legendary dreams school” NTM rahbari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14185670>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-November 2024 yil

Ma`qullandi: 15-November 2024 yil

Nashr qilindi: 19-November 2024 yil

KEY WORDS

*so`z yasalishi, so`z yasash usullari,
derivatsiya, morfologik
derivatsiya, okkozionalizm.*

ABSTRACT

Ushbu maqola orqali so`z yasalishining tilshunoslikda o`rganilishi va okkozionalizmga ta`siri o`rganilgan. Shuningdek, derivatsiyaning turlari, okkozional so`zlarning hosil bo`lishida derivatsiyaning o`rni o`rganilgan.

STUDY OF WORD FORMATION SYSTEM IN LINGUISTICS.

DERIVATION AND OCCASIONALISM

UMAROVA KHILOLAKHAN ILKHOMOVNA

ABSTRACT:

Through this article, the study of word formation in linguistics and its influence on occasionalism have been studied. Also, the types of derivation, the role of derivation in the formation of occasional words were studied.

Key words: word formation, word formation methods, derivation, morphological derivation, occasionalism.

ИЗУЧЕНИЕ СИСТЕМЫ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЛИНГВИСТИКЕ.

ПРОИСХОЖДЕНИЕ И ОКАЗИОНАЛИЗМ

UMAROVA XILOLAKHAN ILKHOMOVNA

АБСТРАКТНЫЙ:

В данной статье изучено словообразование в лингвистике и его влияние на окказионализм. Также были изучены виды деривации, роль деривации в образовании окказиональных слов.

Ключевые слова: словообразование, способы словообразования, деривация, морфологическая деривация, окказионализм.

Kirish.

Ma'lumki, tilshunoslikda ilk bor so`z yasalishi muammosining o`rganilishi turkiyshunos M.A.Kazembek nomi bilan bog`liq¹. O'sha davrda turkiyshunoslik endigina shakllanish arafasida bo`lganligi tufayli so`z yasalishi masalasini o`rganishga unchalik jiddiy e'tibor qaratilmagan². Shuni ham qayd qilish kerakki, tatar tilshunoslarining so`z yasalishi hodisasini o`rganishdagi

¹Казембек М.А. Общая грамматика турецко-татарского языка. – Казань, изд.1-1839; изд. 2-1846

²Севортян Э.В. Аффиксы именного словообразования в азербайджанском языке. – М.: Наука, 1966. –С7.

xizmati, ayniqsa, katta bo'lgan. Tatar tilidagi so'z yasalishi masalasiga doir mulohazakor fikrlar nafaqat o'sha davrga tegishli ilmiy grammatikalarda, balki maxsus tadqiqotlarda, ilmiy maqolalarda ham ko'zga tashlanadi³. Ko'pchilikka ayonki, turkiyshunoslikda turk tilidagi so'z yasalishini o'rganish orqali katta tajriba maktabi vujudga kelgan. Shu o'rinda, M.A.Kazembek, A.N.Samoylovich, V.A.Gordlevskiy, A.N.Kononov nomlarini alohida tilga olish joiz. Qayd qilish kerakki, so'z yasalishi muammosi ilk marotaba turk tili misolida o'rganila boshlangan. XX asrning 30- yillarida turk tilidagi so'z yasalishi masalasi bilan jiddiy shug'ullanishga astoydil kirishgan tilshunoslar dastlab bu bo'yicha material to'plash, uni tartibga solish, so'z yasalish imkoniyatlarini aniqlash bilan mashg'ul bo'lgan va ba'zi muammolarning hal etilishiga imkon qadar o'z hissasini qo'shgan. XX asrning 40-60 yillari arafasida turk tilida so'z yasalishi masalasini o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada yuqori bosqichga ko'tarilgan. XX asrning 30-40 yillarida o'zbek tilshunosligida Ulug' Tursunning "O'zbekchada fe'llarning yasalishi", Zokir Ma'rufovning "O'zbek tilida ot yasovchi suffiksalar" nomli maxsus asarlari yaratildi. Biroq so'z yasalishi hodisasini o'rganish bo'yicha hali maxsus tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan edi. O'zbek tilshunosligida tarixiy so'z yasalishi masalasini yoritishga bag'ishlangan dastlabki "Проблемы исторического словообразования узбекского языка. Аффиксация. Часть I" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi 1955- yilda A.G'ulomov tomonidan himoya qilingan. Tadqiqotda o'zbek adabiy tilidagi mahsulli, kammahsul so'z yasovchi qo'shimchalar sinxron va diaxron aspektida o'rganilgan. Shuningdek, dissertatsiya ishida otlarning bir xil so'z turkumi va har xil so'z turkumi doirasida (ichki va tashqi yasalish asosida) yasalishi masalasiga e'tibor qaratilgan. A.Berdialiev 1970-yilda "Словообразующие сложные аффиксы в узбекском языке" (O'zbek tilida so'z yasovchi murakkab affiksalar) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.. M.A.Jo'rabayeva 1975-yilda "O'zbek tilida affiksalar omonimiya" mavzusidagi nomzodlik ishini himoya qiladi. U qo'shimchalarning omonimik munosabat hosil qilish masalasini o'rganishni tadqiqotining obekti qilib belgilagan. 1999- yilda M.V.Abdiyevning "Аффиксальный способ образования названий лиц в узбекском языке" (O'zbek tilida shaxs nomlarining affiksalar usul bilan yasalishi) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasining himoyasi bo'lgan.

Professor Y.Tojievning "O'zbek tilida affiksalar sinonimiya" mavzusidagi 1991-yilda himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasining birinchi bobi o'zbek tilidagi ot yasovchi qo'shimchalarning sinonimik munosabat hosil qilish masalasiga bag'ishlanadi. Mazkur dissertatsiya o'zbek tilshunosligida, shuningdek, umuman turkiyshunoslikda affiksalar sinonimiya haqidagi har xil munozarali fikrlarga barham bergan tadqiqot ishi hisoblanadi. Biroq shuni ta'kidlash kerakki, shu kunga qadar qo'shimchalarning okkozional so'zlarni hosil qilishi bo'yicha biror bir dissertatsiya yaratilgan emas. Okkozional so'zlar esa nasriy nutqdan ko'ra ko'proq she'riy nutqqa xos. Shuning uchun dissertatsiyamizning obyekti sifatida she'riy nutq tanlandi.

Badiiy asar tiliga kategorial yondashuvning shakllanishi, badiiy so'zni ijodning shakl va mazmun xossalari birligida o'rganishga harakat badiiy asarni estetik va falsafiy nuqtayi nazardan tushunish uchun asos bo'ldi. Jumladan, G.E.Lessing, F.Shiller, Gumboldt, A.A.Potebnya, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, V.Ya.Zadornova, O.S.Axmanova, G.O.Vinokur,

³Ганиев Ф.А. Некоторые итоги исследования словообразования в современном татарском языке и задачи его дальнейшего изучения // Сб: Вопросы татарского языкознания. – Казань, 1971. – С. 102.

L.V.Shcherba ishlari o'rganildi, muhim ilmiy xulosalaridan foydalanildi. A.Xolodovichning «Adabiy til uslubshunosligi», «Poetikada lisoniy usul» asarlarida, nemis olimi E.Koseriuning poetik tilning yangi izohi kabi tushunchalarida, fransuz tilshunoslari D.Delas va J.Fiyollarning lingvistika va poetika bo'yicha yangi qo'llanmalarida, Ye.B.Artemenkoning lingvofolkloristika bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida lingvopoetikaning filologiya ilmidagi alohida fan sifatida o'rganilishi yuzasidan qarashlar bayon qilingan. Zamonaviy rus tilshunosligida lingvopoetikaning nazariy masalalari tadqiqi bilan shug'ullangan olimlardan biri A.Lipgartdir.

Tilshunoslikning lingvopoetika sohasi davrning dolzarb ilmiy-nazariy masalalari, muammolari, tadqiqiy vazifalari bilan xarakterlanadi. Xususan, adabiy ijodlar, yetuk badiiyat namunalarini lingvopoetik xususiyatlar nuqtayi nazaridan kuzatib, o'rganib borish, bu yo'nalishdagi tahlil, talqin, baholashni izchil yo'lga qo'yish bugungi o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir.

Adabiyotning nasri ham, she'riyati ham qator yangi, teran ijodlar, badiiy asarlar bilan boyimoqda. Binobarin, ularning eng manzur va e'tiborga sazovorlari asosida lingvopoetik tadqiqotchilikni faol yuritish maqsadga muvofiqdir. Tabiiyki, ana shu zaruriyat bilan bog'liq dunyoqarash tilshunoslik ilmini o'qitish jarayoniga ham taalluqlidir. Bu sohani o'rganishdagi ko'plab qonun-qoidalar, til materiali doirasidagi o'zgarishlar juda sekinlik bilan amalga oshgan bo'lsa-da, tilning sotsialingvistik jihatlari, uni amalda qo'llash jarayonining yangicha, zamonaviy talablarga muvofiqlashtirilishi hayot talabidir. Bu, dastavval, til materialidan nutq jarayonida samarali foydalanish, nutq madaniyatini yanada takomillashtirish borasida me'yoriy muammolarni ma'lum darajada hal qilish va bunga oid bilimlardan talabalarni, jamoatchilikni xabardor qilib borish bilan bog'liq. Sh.Turniyazovning nomzodlik ishi matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, unda mikromatn va uning turlari haqida mulohaza bildirilib, unda oddiy grafema (nutqda tovush), so'z va so'z birikmalari ham matn maqomida kelishi mumkinligi dalillangan, mikro va makromatnlar voqelanishining derivatsion xususiyatlari ilmiy talqini berilgan, matn komponentlarining va umumiy matn strukturasiining derivatsion xususiyatlari yoritildi va bunda derivatsiya operatori vazifasida keluvchi semantik omil hamda leksik vositalar, matn komponentlarining pog'onali munosabati xususida fikrlar bildirilgan.

Hozirgi vaqtda o'ziga xos shaxsiy mualliflik so'zi ijodi tilshunoslarni tobora ko'proq jalb qilmoqda. So'zning yaratilish sabablarini aniqlash, yozuvchiga xos bo'lgan mualliflik uslubini yaratishning muhim vositasi sifatida okkozionalizmlarni o'rganishga qiziqishni kuchaytirdi. Tadqiqotning eng keng tarqalgan materiali she'riy nutqdir (O. Vinokur, M. A. Bakin, I. L. Loading, R. Yu.) Bu jihatdan nasriy nutq (V. A. Gorelkin, N. Kozhevnikova, L. A. Novikov, M. R. Napsok, E. A. Jigarev) kam o'rganilgan.

Tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi fazasida til materialining struktur-sistem tahlili dolzarb muammolardan bir ekanligi hech kimga sir emas. Jahon tilshunosligida til taraqqiyotining bugungi kunga qadar struktur tilshunoslik muammolari bo'lmish distributiv tahlil, transformatsion tahlil, til materialining funksional tahlili, sintaktik, leksik va semantik derivatsiya talqini, psixolingvistika, neyrolingvistika masalalarining tadqiq etilishi yuzasidan ko'plab yutuqlarga erishildi. Biroq mazkur masalalar talqini o'zbek tilshunosligida hali tom ma'noda o'z yechimini topgani yo'q. Bu birinchi navbatda fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, dunyo tilshunosligida erishilgan yutuqlardan foydalangan holda o'zbek tilshunosligida eng avval derivatsiya masalalarining ilmiy talqinini va bu bilan bevosita bog'liq

bo'lgan tilimiz taraqqiyotining derivatsion muammolarini atroflicha yoritish bugunning eng muhim vazifalardan biridir. Derivatsiya – zamonaviy tilshunoslikning eng ilg'or yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayon tilning doimiy takomillashuvini ta'minlaydi. Til nafaqat ma'lum bir tilning yaratilishi, balki tilning o'zini o'zi yasashi tomonidan o'rganiladi va bu hodisa hozirgi lingvistika sohasida «derivatsiya» deb atalib, derivatsiya nazariyasi doim tilshunoslar tadqiqotlarining ilmiy va amaliy subyekti bo'lib kelgan.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni ham ta'kidlash joizki, hozirda derivatologiya sohasi tilni turli yo'nalishlarda tadqiq qilyapti. Masalan lingvistik yo'nalish (derivatsiya atamasi ostida til birliklarining shakllanishi tushuniladi), kognitiv yo'nalish (til bu doimiy kuzatuvdagi uzluksiz jarayon, fikrni ifodalashning eng muhim vositasi sifatida) va psixologik yo'nalish (bunda derivatsiya til burliklarini faollashtiruvchi jarayon sifatida ko'zga ko'rinmas, mavhum tarzda ifodalanadi). Ko'rinadiki, derivatsion nazariya bugungi kunga qadar lingvistik doirada eng talabi kuchli nazariyalardan biridir, chunki mazkur yo'nalish Y. S. Kubryakova ta'biri bn aytganda, tilshunoslik rivojlanishining zamonaviy tamoyillariga to'liq javob beradi.

References:

- 1.Казембек М.А. Общая грамматика турецко-татарского языка. – Казань, изд.1-1839; изд. 2-1846
- 2.Севортян Э.В. Аффиксы именного словообразования в азербайджанском языке. – М.: Наука, 1966. –С7.
- 3.Ганиев Ф.А. Некоторые итоги исследования словообразования в современном татарском языке и задачи его дальнейшего изучения // Сб: Вопросы татарского языкознания. – Казань, 1971. – С. 102.
- 4.Turniyazova Sh.Hozirgi o'zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari.Filol.fan.nomz... dis.-Toshkent, 2010.
- 5.Бахтин М.М. Формальный метод в литературоведении. М., 1993.
- 6.Винокур Г.О. Филологические исследования.Лингвистика и поэтика. М.,1990.
7. Гаспаров М.Л. Поэтика // Литературный энциклопедический словарь / под общ. ред.В.М. Кожевникова, П.А. Николаева. М., 1987.
8. Жирмунский В.М. Введение в литературоведение. М., 2009.
9. Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. Л., 1971.6.
10. Якобсон Р. Работы по поэтике. М., 1987.